

## SHARQ VA G'ARBNI BIRLASHTIRIB

*2025 yilning iyul oyi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi uchun faqatgina ob-havo jihatidan emas, balki voqealarning serqirraliligi jihatidan ham qizg'in o'tdi – xorijiy xizmat safarlar, chiqishlar va muzokaralar oyni yanada mazmunli qildi. Bo'lim raisi Abdurazak Mirzayev tashrif buyurgan va hamkasblari bilan uchrashuvlar o'tkazgan mamlakatlar geografiyasi Sharqdan G'arbga qadar kengaydi. Ushbu tashriflar qabul qiluvchi tomonlarning rasmiy taklifiga binoan amalga oshirilgani esa jahon ilmiy va ishbilarmon doiralari tomonidan O'zbekistonga bo'lgan qiziqish tobora ortayotganidan dalolat beradi.*



Tashrif qilingan davlatlar ro'yxatida birinchi bo'lib Balkan yarimorolidagi mamlakat bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi hamda Bolgariya Respublikasining "Agro Solei" MChJ o'rtaida ikki yil avval hamkorlik to'g'risida memorandum imzolangan edi. Mazkur korxona rahbari Georgi Tonchev shu bilan birga Sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning mintaqaviy uyushmasi raisi ham hisoblanadi. Uning chorvachilik majmuasida bir necha yosh o'zbek mutaxassislari mehnat qilmoqda. Taklifnomalar orqali u Navoiy bo'limi bilan hamkorlikni yanada mustahkamlashga qiziqish bildirdi.

Veliko-Tirnovo viloyati meriyasida fermerlar va agrar sohadagi mutaxassislar bilan tashkil etilgan muzokaralarda tomonlar go'sht va sut yo'nalishidagi yirik va mayda shoxli qoramollar hamda parrandalarning seleksiyasi va boqilishi bo'yicha qo'shma tadqiqotlar o'tkazish imkoniyatlarini muhokama qildilar.



Muzokaralarning yana bir mavzusi sifatida Bolgariya sharoitida Navoiy bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va dala sinovlarida samaradorligini ko'rsatgan innovatsion suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash imkoniyati muhokama qilindi: ya'ni qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini bentonit gili kukuni bilan qobiq qilish va o'simliklarni bentonitli suspenziya bilan bargdan oziqlantirishdir. Veliko-Tirnovo hududida odatda may va iyun oylarida yomg'ir ko'p yog'sa-da, umumiy iqlim mo'tadil-kontinental hisoblanadi. Bentonit namlikni singdirish va o'zida saqlash qobiliyatiga ega bo'lib, o'simliklarning suvga bo'lgan ehtiyojini qisman qoplaydi. Ushbu xususiyat ekin hosilini qurg'oq va issiq davrda saqlab qolishga yordam beradi.

Bolgariyaning "Paulownia BG" MChJ rahbari Djan Duralov boshchiligidagi jamoa yuqorida tilga olingan texnologiyalarning samaradorligini tekshirish uchun 80 hektar yer maydoni ajratishga tayyorligini bildirdi. Shu yerda nafaqat mahalliy sabzavot navlari, balki o'zbek qovunlarini o'z ichiga olgan poliz mahsulotlari yetishtirilishi bo'yicha kelishuvga erishildi. Bu ishlar uchun mavsumiy mehnatga O'zbekistondan tajribali dehqonlar jalb etiladi va mahsulot Yevropa bozorida sotiladi. Ishlar 2026 yilga mo'ljallangan.

Ta'kidlash joizki, bu Navoiy bo'limi va "Paulownia BG" MChJ o'rtaсидаги ilk hamkorlik emas. 2022 yildan beri Nurota tumanidagi lalmikor yerlarda pavlovnija daraxtlari plantatsiyasini yaratish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. O'sha yil mart oyida Bolgariyadan 2 ming qalampir va 1 ming

ko'chat olib kelingan. Aprelda ushbu tez o'suvchi daraxtlar 1 gektar maydonga ekilib, ko'chatlar uchun niholxona tashkil etilgan. Hozirgi bosqichda zarur agrotexnologik tadbirlar o'z vaqtida olib borilmoqda, plantatsiya maydoni esa 4 gektardan oshgan.



O'zbek mutaxassislarini jalb etish masalasi Svishtov shahar meri Gencho Genchev bilan uchrashuvda ham ko'tarildi. U mehnat qilish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga tayyor ekanini bildirdi. Shuningdek, Abdurazak Mirzayev Sofiya shahridagi Bolgariya Fanlar akademiyasi Robototexnika institutiga tashrif buyurdi. Institut direktori Avgust Ivanov va ilmiy kengash a'zolari bilan muzokaralar bo'lib o'tdi. Tomonlar hamkorlik to'g'risida memorandum imzolashga kelishib oldilar.

18-20 iyul kunlari Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon provinsiyasida "Ipak yo'li" tog'-kon sanoati bo'yicha hamkorlik forumi hamda tog'-kon va ko'mir sanoatining xalqaro ko'rgazmalari bo'lib o'tdi. Tashkilotchilarning so'zlariga ko'ra, ushbu tadbir dunyodagi uchta yirik geologiya ko'rgazmalaridan biri hisoblanadi va milliy texnologiyalar hamda uskunalardan qazib olish sohasida qo'llash uchun innovatsion maydon bo'lib xizmat qiladi. Navoiy bo'limidan raisi bilan birga O'zbekiston nomidan tarkibiy bo'lim mudiri Sherzod Sharipov ham qatnashdi.



O'zbekiston geologiyasidagi yutuqlar haqida ma'ruzalar so'ngida, navoiylik geologlar qator ikki tomonlama muzokaralar o'tkazdilar. "Xitoy - Qirg'iziston - O'zbekiston" temir yo'l magistrallari hamda tog'-kon sohasi rivojlanishiga bag'ishlangan seminar doirasida Navoiy bo'limi Xitoy Geologiya fanlari akademiyasining Geomekhanika instituti va Chendu texnologik universiteti bilan xalqaro temir yo'l yo'nalishi bo'ylab geologiya-qidiruv ishlarini hamkorlikda amalga oshirish imkoniyatlarini muhokama qildi. Yo'l qurilishi tog'lar orasidan o'tishi munosabati bilan, tog' jinslari tarkibi, tuzilishi va yotishi hamda tektonik yoriqlarni tahlil qilish uchun noyob imkoniyat yaratadi. Bu esa zamonaviy relyef shakllanish bosqichlarini o'rganishga hissa qo'shishi mumkin. Aytish joizki, bo'lim yuqorida qayd etilgan Xitoy universiteti bilan karer qiyaliklarida geologik ofatlarni intellektual monitoring qilish va erta ogohlantirish texnologiyalarini kompleks o'rganish bo'yicha hamkorlikda ish olib bormoqda.

Navoiy bo'limi Shinjondagi yangi turdagи energetik transport vositalariga ixtisoslashgan Xinjiang Jingcheng Energy Technology Development Co., Ltd. kompaniyasi bilan samarali muzokaralar o'tkazdi. Tomonlar elektromobillar uchun akkumulyator texnologiyalari sohasida ilmiy va ta'lim kadrlarini tayyorlashda hamkorlik qilishga kelishib oldilar. Shuningdek, intellektual xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan Zhunfei Smart Services Co. Ltd.

kompaniyasi bilan ham memorandum imzolandi. China Yongye Infrastructure Construction Group bosh direktori Xou Yaotszyunga O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi nomidan Xitoy ilmiy-tadqiqot muassasalari, ishlab chiqarish korxonalar, kompaniyalar va tadbirkorlik subyektlari bilan rasmiy muzokaralar olib borish, takliflar ishlab chiqish va muvofiqlashtirish vakolati berildi.



Bundan tashqari, Xitoyning bir qator boshqa hamkorlari bilan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun dronlar yaratish va sinash, an'anaviy xitoy tibbiyoti markazini qurish, shakar ishlab chiqarishdagi chiqindilardan xamirturush ishlab chiqarish kabi yo'nalishlar bo'yicha muzokaralar o'tkazildi.



Forumda jahoning 30ga yaqin mamlakati vakillari ishtirok etdi. Navoiylik olimlar MDH davlatlaridan tashrif buyurgan hamkasblar bilan hamkorlik istiqbollarini muhokama qilish imkoniyatini qo'ldan boy bermadilar. Jumladan, Rossiyaning "AlyansXimProm" va "SibEkoXim" MChJlari bilan hamkorlik to'g'risida memorandumlar imzolandi. "SibEkoXim" ishlanmalari qatorida yo'lga sepiladigan va qum hamda tosh zarrachalarini birlashtirib, chang chiqmasligini ta'minlaydigan maxsus vosita mavjud. U karerlar va boshqa qazib olish obyektlarida qo'llanilishi mumkin. Tomonlar mazkur vositani Qizilqum tog'-kon hududi sharoitida birgalikda sinashga kelishib oldilar.

25 iyul kuni Ozarbayjonning Naxchivon Avtonom Respublikasida "Naxchivon 2025 — GeoMining" geologiya va tog'-kon sanoati forumi bo'lib o'tdi. Unda Navoiy bo'limi raisi A.Mirzayev ma'ruza bilan chiqish qilib, bo'lim faoliyati, O'zbekistonda fan va ta'limni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, shu jumladan geologiya hamda ushbu sohada sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari haqida batafsil ma'lumot berdi. U shuningdek, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning geologik tahlillardan so'ng kon uchastkalarini tadbirkorlarga topshirish uchun xalqaro kompaniyalarni jalb qilish haqidagi topshirig'ini eslatib, bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumot berdi va ozarbayjonlik hamkasblarini hamkorlikka chaqirdi.

Ushbu taklifga Ozarbayjonning geologik loyihalash va loyihalarni boshqarish bo'yicha AT-Geotech mintaqaviy kompaniyasi vakillari qiziqish bildirdi. Tomonlar mobil geologiya-qidiruv otryadini birgalikda tashkil etish imkoniyatini muhokama qildilar.



Forum ishtirokchilari Ozarbayjonda neft-gaz geologiyasi, O'zbekistonda esa ma'dan geologiyasi yaxshi rivojlanganini, shu bois tajriba almashish va hamkorlik zamon talabi ekanligini qayd etdilar. Bu ma'noda Naxchivon Avtonom Respublikasi rahbariyati navoiylik mutaxassislarning pavlovnija yetishtirishdagi tajribasini o'rganishga qiziqish bildirdi va ushbu daraxtlarning tajriba plantatsiyasini tashkil etish istagini bildirdi. Bu yo'nalishda Bolgariyaning Paulownia BG MChJ ishtirokida uch tomonlama muzokaralar ham bo'lib o'tdi.

Xalqaro safarlar yakunida xulosa shunday: fan insoniyatga xizmat qilishi kerak. Har kim o'z yo'li bilan maqsadga yetishi mushkul, birlashgan harakat esa maqsadga yetkazuvchi yo'lni tezlashtiradi.

**Fevzi ISTABLAYEV,  
FA Navoiy bo'limi matbuot kotibi.**